

## Xalq durdonalari 100 jildlikda jam

Asrlardan sado berib bizgacha yetib kelgan, o'zligimiz, qiyofamiz, milliy qadriyatimizni o'zida aks ettiruvchi xalq og'zaki ijodi namunalari insonni ma'naviy yetuklikka, olamni tafakkur ko'zi bilan ko'rishga undovchi muhim vositadir.

Ma'lumki, xalq og'zaki ijodining turfa janrlari – alla, ertak, topishmoq, doston, maqol va naqlarimiz kuchli tarbiyaviy ahamiyatga ega. Shu bilan birga erkin fikrlashga, go'zal xulqni shakllantirishga va nutq ravonligini oshirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti "Folklor" bo'limi tomonidan "O'zbek xalq ijodi yodgorliklari" nomli 100 jildlik majmuaning navbatdagi 16-17-18-jildlari nashrdan chiqdi. Hozirgi kunda 19-20 jildlari nashrdan chiqish arafasida.



Ushbu nashrning 59 jildi dostonlar, 10 jildi xalq qo'shiqlari, 12 jildi ertaklar, qolgan jildlar esa terma,

afsona, rivoyat, marsiya, naql, maqol, topishmoq, askiya, lof, latifa, og'zaki drama, bolalar folklori va boshqa janrlarni o'z ichiga oladi.

Ushbu muhtasham jamlanmaga o'zbek folkloriga oid rang-barang janrlardan iborat eng sara namunalar kiritiladi. Asrlarni dog'da qoldirgan boy madaniy merosimizning yozma shaklini kelajak avlodga yetkazish ma'suliyati ostida bugungi kunda O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti "Folklor" bo'limi ilmiy xodimlari izchil ish olib bormoqda.

Umid qilamizki, ko'plab ustoz olimlarning mehnati singayotgan, o'zbek folklorshunosligi tarixida ilk bor nashrga tayyorlanayotgan ushbu 100 jildlik nashr keng kitobxonlar ommasiga manzur bo'ladi. Va yana ming asrlar davomida kelajak avlod tarixiy qadriyatlarimiz, o'lmas ma'naviyatimiz haqida to'la tasavvur va bilimga ega bo'lishiga muhim manba bo'lib xizmat qiladi.